SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus son (5-jild)

2025

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5SI5Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ S/5 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Abdullaev Ulug'bek Saydanovich*
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR ........ 10-14

*Shukurillayev Yunus Asrorovich*
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RIQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI TAHLILI ........ 15-19

*Рахманкулова Адолат Хушбаковна*
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ ........ 20-25

*Xusanov Xabibullo Xakimovich*
O'ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI ........ 26-30

*Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna*
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR ........ 31-38

*Atamuratova Dilafruz Rashidovna*
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT........ 39-42

*Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li*
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI ........ 43-48

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Исламутдинов Вадим*
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 49-54

*Melibaeva Gulxon Nazrullayevna*
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA........ 55-65

*Ульмас Ибрагимов*
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ........ 66-75

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Salomova Hakima Yusupovna*
ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI ........ 76-83

*Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom*
YURIDIK TA'LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA........ 84-90

*Djo'raev Anvar Muxamadiyevich*
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI ........ 91-96

*Каримова Гулчехра Самадовна*
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО-ЭТИЧЕСКИХ ........ 97-101

*Гайбуллаев Жавлон Шавкатович*
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ ........ 102-105

*Yusupaliyev Orzimurod Odilovich*
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI ........ 106-110

*Taylyakova Feruzaxon Sultanovna*
OʻZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI ........ 111-116

*Yusupova Ranoxon Tolibjonovna*
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA ........ 117-120

*Yarashov Sarvar Norqul oʻgʻli*
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TAʻSIRI ........ 121-125

*Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux*
ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN’AT FALSAFASI ........ 126-130

*Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин*
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ ........ 131-135

*Kurbanbaeva Ulbosin Jumagʻalievna*
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI ........ 136-139

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Miqumova Dilafruz*
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA’FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE’RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI ........ 140-147

*Xoʻjamqulov Anvar, Togʻayeva Shoxnoza*
TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI ........ 148-159

*Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon*
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS ........ 160-163

*Mamatova Feruza Maxammadovna*
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI ........ 164-168

*Burxonova Gulmira Olimjon qizi*
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI ........ 169-172

*Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara*
BOGʻLOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: OʻZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA ........ 173-177

*Musurmonova Barchinoy Hasan qizi*
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI ........ 178-182

*Яркулова Фотима Усмановна*
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ ........ 183-186

*Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna*
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR ........ 187-190

*Musoeva Hayitgul Urokovna*
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE" ........ 191-195

*Yuldasheva Kamola*
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR ........ 196-202

*Matkarimova Malika Oybek qizi*
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS ........ 203-206

Kamola Hatamova
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ........ 207-210

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Uralov Sharof Urazaliyevich*
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI ........ 211-216

*Mamatmurodov Farrux*
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE ........ 217-222

*Муталипова Лола Фархадовна*
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 223-234

*Нормуродова Азиза Азимжон кизи*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ . 235-241

*Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna*
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ........ 242-246

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Ismaylov Azerbay Saparniyazovich*
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI ........ 247-252

*Namozova Dilorom Tursunovna*
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI ........ 253-261

*Давыдова Руфина Артуровна*
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ ........ 262-266

*Gaziev Baxromjon Valievich*
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI ........ 267-273

*Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi*
DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:
O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI ........................................... 274-279

*Rakhmonova Dilnura Saidovna*
TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:
AMALIYOT VA TAJRIBA ........................................................................................................................ 280-286

*Yakubova Barno Baxtiyorovna*
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA
QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH .................................................................... 287-290

*Rixsiboyev Behzod Alisherovich*
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI ........ 291-295

*Islamova Moxichexra Bekmurzayevna*
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI ..... 296-301

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 5 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 2 June 2025
**Accepted:** 15 June 2025
**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

# INTERNATIONAL EXPERIENCE IN DESIGN EDUCATION: ANALYSIS OF CURRICULA AND PEDAGOGICAL APPROACHES

**Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi**
Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute
Master's Student in the Field of Engineering Graphics and Design Theory
E-mail: mokhitash@gmail.com

**Abstract.** In recent years, design sectors in developed countries have rapidly advanced, leading to a significant increase in demand for professional designers. This article provides an analytical study of the key factors driving this trend and its impact on educational systems. Additionally, it highlights the experiences of leading countries with strong traditions in fashion design education. The research findings contribute to a deeper understanding of contemporary trends in design education and its future prospects.

**Keywords:** design education, international experience, educational programs, pedagogical approaches, innovative education, practical integration.

# DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI: O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI

**Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi**
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti
Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya.** So'nggi yillarda rivojlangan davlatlarda dizayn sohalari jadal sur'atlar bilan taraqqiy etmoqda, bu esa dizayner mutaxassislarga bo'lgan talabning sezilarli darajada oshishiga olib kelmoqda. Mazkur maqolada ushbu jarayonning asosiy sabablari va uning ta'lim tizimlariga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, libos dizayni ta'limida yetakchi an'analarga ega bo'lgan davlatlarning ilg'or tajribalari ham batafsil yoritilgan. Tadqiqot natijalari dizayn ta'limining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini va kelajakdagi istiqbollarini anglashga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** dizayn ta'limi, xalqaro tajriba, o'quv dasturlari, pedagogik yondashuvlar, innovatsion ta'lim, amaliy integratsiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N45

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda dizayn nafaqat estetikani ifodalash vositasi, balki sanoat, marketing, IT va ta'lim sohalarining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Shuning uchun dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlarida dizayn yo'nalishidagi ta'lim dasturlari zamonaviy mehnat bozoriga moslashtirilgan, interaktiv va innovatsion pedagogik metodlar asosida shakllantirilmoqda.

Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi [8] Prezidentning PQ-2909-sonli qarori oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni belgilaydi. Mazkur qarorda har bir oliy ta'lim muassasasining jahondagi yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy

materiallarni keng joriy qilish, yangi avlod oʻquv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish, xorijda pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish va stajirovkasini oʻtkazish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD va magistratura dasturlari boʻyicha oʻqitish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

**Adabiyotlar tahlili.** "Dizayn" soʻzi ingliz tilida dastlab "reja tuzish", "loyiha ishlab chiqish" ma'nolarini anglatgan. Biroq, XX asrning oʻrtalarida, ayniqsa 1940–1960-yillarda, dizayn sohasining oʻziga xos yoʻnalish sifatida shakllanishi boshlandi. Bu davrda dizayn faqat estetik jihatdan goʻzal mahsulotlar yaratishdan tashqari, funksional, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni ham oʻz ichiga olgan kompleks faoliyatga aylandi. 1960-yillar dizayn sohasida muhim oʻzgarishlar davri boʻldi. Bu davrda dizaynning ilmiy asoslari ishlab chiqildi, tizimli yondashuvlar rivojlandi va dizayn ilmiy soha sifatida tan olindi. Masalan, 1963–1964-yillarda L. Brüs Arxer tomonidan yozilgan "Systematic Method for Designers" asari dizaynning tizimli yondashuvini ishlab chiqdi. Shuningdek, 1962-yilda Londonda boʻlib oʻtgan "Systematic and Intuitive Methods in Engineering, Industrial Design, Architecture and Communications" konferensiyasi dizayn metodlari harakatining boshlanishiga sabab boʻldi [2].

Xalqaro dizayn ta'limi dasturlari turli pedagogik yondashuvlarni oʻz ichiga oladi, ularning samaradorligi va qoʻllanilishi ta'lim tizimining maqsadlariga va talabalar ehtiyojlariga bogʻliqdir. Quyida asosiy pedagogik yondashuvlar keltirilgan:

1. Design-Based Learning (DBL) [4]. DBL — bu oʻquvchilarga haqiqiy muammolarni hal qilish orqali oʻrganishga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Bu yondashuvda talabalar dizayn jarayonlarini oʻrganish orqali ijodkorlik va muammolarni hal qilish koʻnikmalarini rivojlantiradilar. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, DBL talabalarga chuqurroq oʻrganish va 21-asr koʻnikmalarini rivojlantirishda natijali;

2. Project-Based Learning (PBL) [10]. PBL - bu oʻquvchilarga haqiqiy loyihalar orqali oʻrganishga imkon beruvchi yondashuvdir. Dizayn ta'limida PBL talabalarga amaliy tajriba orttirishga, jamoada ishlashga va muammolarni hal qilishga yordam beradi va PBL talabalarning ijodkorlik va muammolarni hal qilish koʻnikmalarini rivojlantirishda muvaffaqiyatli;

3. Sustainable Design Pedagogy [11]. Barqaror dizayn ta'limi — bu ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni hisobga olgan holda dizayn qilishni oʻrgatishdir. Tadqiqotlar natijalariga koʻra, barqaror dizayn ta'limi talabalarni barqarorlik prinsiplari asosida dizayn qilishga oʻrgatishda samarali;

4. Inclusive Design Pedagogy [5]. Inklusiv dizayn ta'limi - bu barcha insonlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda dizayn qilishni oʻrgatishdir. Ushbu ta'lim talabalarni turli ehtiyojlarga muhtoj boʻlgan insonlar uchun dizayn qilishga oʻrgatishda unumli natijalar beradi.

**Muhokama va natijalar.** Bugungi kunda dizayn sohasining jadal rivojlanishi quvonarli holdir. Ayniqsa, dizayn obyektlarini loyihalash jarayonlarida innovatsion va nanotexnologiyalar, zamonaviy dasturiy ta'minotlar, shuningdek, samarali marketing strategiyalaridan foydalanish ushbu sohaning ilmiy va amaliy salohiyatini yanada oshirmoqda. Aniqki, bunday yutuqlarga erishish, avvalo, dizayn yoʻnalishidagi ta'lim tizimlarining modernizatsiya qilinishi, ularda zamonaviy texnologiyalar va konseptual yondashuvlar asosida shakllangan texnik-ijodiy prinsiplarning samarali joriy etilayotgani bilan uzviy bogʻliqdir.

Mazkur tendensiyalar tahlilida, xususan, Italiya, Yaponiya, AQSh, Fransiya kabi rivojlangan davlatlardagi dizayn ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan yondashuvlar, ta’lim konsepsiyalari va ularning o‘quv-amaliy dasturlari misolida tahlil va taqqoslar olib borildi.

Birinchi, Italiyaning san’at, madaniyat va arxitektura tarixida muhim o‘rin tutuvchi, ayniqsa, “Uyg‘onish davri” ning beqiyos markazlaridan biri sifatida mashhur Florensiya shahrida joylashgan Polimoda [7] xususiy moda oliygohi o‘quv dasturlariga alohida to‘xtalish joiz. Muassasa moda dizayni, moda biznesi va moda marketingi bo‘yicha yo‘nalishlarni taklif etadi. Oliygohga 1986-yilda asos solingan, dastlab Politexnikum ko‘rinishida faoliyat yurita boshlagan. Oliygoh jamiyat uchun barqaror va axloqiy moda amaliyotiga qaratilganligi bilan mashhur va uning kuchli sanoat aloqalari talabalarga qimmatli amaliyot va o‘qishni tugatgandan so‘ng kadrlarga ish imkoniyatlarini taqdim etadi. Polimodada dizayn, menejment va texnologiya bo‘yicha bakalavriat, aspirantura va doktorlik dasturlari mavjud. Bakalavriat dasturi, o‘rta maktabni tamomlagan va modaning turli sohalarida ekspert va batafsil tayyorgarlikni olishni xohlovchi yoshlar uchun ideal fanlar to‘plami. Har yili olingan bilimlarga asoslanib, ushbu kurslar oxirida talabalarning kasbiy sharoitda ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish uchun 3 oylik amaliyot dasturi mavjud.

Moda bo‘yicha bakalavriat fanlari: Moda uchun raqamli strategiya, Moda dizayni, Moda biznesi, Moda san’ati yo‘nalishlari, Moda uslublari, Moda marketingi boshqaruvi, Tikuvchilik dizayni, Moda aksessuarlari dizayni, Mahsulot ayirboshlash boshqaruvi, Moda dizayni boshqaruvi; Magistr ta’lim dasturi fanlari: Moda asoslari, Brend boshqaruvi, Savdo-sotiq va tashkiliy qism, Moda bo‘yicha suhbatlar kabi asosiy ta’lim fanlaridan iborat

Polimodaning boshqa ta’lim maskanlaridan asosiy farqli jihati, Moda olamining har qanday sohasida uni reklama qilish, marketing, iqtisodiy menejment, inson resurslari, sotish, tayyor mahsulotni shaxslararo va yoki chakana savdo orqali ommaga sotish borasidagi bilim-ko‘nikmalarni talabalarga berishni o‘z oldiga ustuvor vazifa sifatida qo‘ygan.

Ikkinchi oliygoh, Yaponiyadagi Bunka Fashion College [3] 1919-yilda Isaburo Namiki tomonidan ayol-qizlarni tikuvchilik bo‘yicha o‘qitish uchun ochilgan. 1936-yilda, Bunka Fashion College nomini olib, Yaponiyadagi ilk moda jurnali Soenda ushbu oliygoh to‘g‘risida chop etilgan. Oliygoh faoliyatini endi boshlagan paytida jamiyatdagi iqtisodiy tanglikning oldini olish maqsadida xalqqa o‘z-o‘zini tayyor kiyim bilan ta’minlash borasida bilim-ko‘nikma bera boshladi; 1960-yildan buyon, Kenzo Takada va Yohji Yamamoto kabi dizaynerlar faoliyati oliygoh mavqeyini oshirib kelmoqda. 2000-yildan buyon Oliygoh o‘z oldiga barqaror va global bo‘luvchi Moda industriyasini barpo qilishni maqsad qilgan. Bunka moda dizayni, moda texnologiyasi, moda marketingi, moda aksessuarlari va to‘qimachilikka qaratilgan dasturlarga ega. 2012-yilda Bunka Gakuen universiteti, kollej bilan bog‘langan qo‘shni oliy ta’lim instituti chet ellik talabalarga mo‘ljallangan Moda tadqiqotlari bo‘yicha magistratura yo‘nalishini ochdi. Bu kurs Global moda konsentratsiyasi deb atalib, to‘liq ingliz tilida o‘qitiladi.

Oliygohning boshqa xorij ta’lim tizimidan farqlari, talabalar har yili haqiqiy jismoniy figuralar ustida ishlashga intilib, har yangi o‘quv yilida aholi o‘rtacha o‘lchovlarini aks ettiruvchi yangi manekenlar yaratiladi va barcha talabalardan inson tanasining shaklidan kelib chiqqan holda yaratilgan kiyimda harakatlanish qulayliklari va yoki kamchiliklari ustida amaliy va real hayotda qo‘llash tamoyili qat’iy talab etiladi. Bunka maktabi o‘z ta’limida Satori va Kayzenni qadrlaydi (Buddizm dinida Buddaga misol qilinib borliqni chuqur anglashni anglatadi). Faqat

magistratura dasturi ingliz tilida olib boriladi, bakalavriat talabalari yapon tilini bilish imtihonidan oʻtishlari kerak va talabaga yarim kunlik ishlashga ham ruxsat berilmaydi.

Uchinchi muassasa, AQShdagi birinchi raqamli dizayn Universiteti Parsons [9] bugungi kunda ilgʻor oʻquv dasturlari orqali mashhur. 2021-yilda Forbes jurnali Parsonsni AQSHdagi eng top dizayn maktabi deb topib, libos dizayni boʻyicha taʼlim dasturi alohida eʼtirof etilgan. Parsons libos dizayni, interyer dizayni, reklama, grafik dizayn va yorugʻlik dizayni boʻyicha dasturlarni taklif qilgan Amerikadagi birinchi Universitet. U 1970-yilda yangi maktab boʻlimlaridan biriga aylangan xususiy milliy tadqiqot universiteti bilan hamkorlik qilgan birinchi va yagona xususiy sanʼat va dizayn maktabi boʻlib qolmoqda.

Parsons taʼlim tizimi metodikasiga koʻra:

1. Fanlararo, loyihani amaliyotda qoʻllashga asoslangan tizim markazda boʻlib, talabalarni turli oʻrin va tabaqadagi jamiyat uchun libos dizayni imkoniyatlarini qoʻllash, qayta koʻrib chiqish va muammolarni turli nuqtai nazardan koʻrib chiqishga undaydi;
2. Parsons talabalari birinchi yilidan boshlab 2D, 3D va 4D ishlab chiqarish va tasvir yaratishda turli xil analog va raqamli texnologiyalar bilan tanishadilar;
3. Taʼlimning keyingi yillarida talabalar oʻzlarining texnologik koʻnikmalarini yanada takomillashtiradilar, shu bilan birga oʻz fanlariga xos boʻlgan koʻnikmalarga ega boʻlishadi. Texnologiya va jihozlardan foydalanish studiyada oʻqitishning keng kontekstiga kiritilgan, shuning uchun talabalar ushbu qobiliyatlarni qanday qilib eng yaxshi qoʻllashni va ulardan foydalanish natijalarini oʻrganishda ega boʻlishadi;
4. Eng zamonaviy jihozlar va texnologiyalarga investitsiyalarni davom ettirish maktab uchun ustuvor vazifadir. Parsons hozirda barcha fanlar va dasturlar boʻyicha ishlab chiqarishni qoʻllab-quvvatlash uchun 30 000 kvadrat futlik zamonaviy ishlab chiqarish markazini qurmoqda. Raqamli texnologiyalar va jismoniy hunarmandchilikning eng ilgʻor, barqaror amaliyotlarini qoʻllab-quvvatlash uchun moʻljallangan „Making” markazi 3D bosib chiqarish, prototiplash, modellashtirish, bosma nashr qilish, ishlab chiqarish, qurish, hisoblash, frezalash, muhandislik va boshqa koʻplab vositalar va koʻnikmalarni taqdim etadi.

Ushbu oliygoh taʼlim toʻlovi yuqoriligi bilan ham boshqa xorij universitetlaridan ajralib turadi, toʻlov (yiliga): $56,244. Toʻlovlar oʻz ichiga yashash joyi, oʻquv qurollari, darsliklar, transportdan foydalanish,kutubxona xizmati, sport binolari, darsxonalar, texnologiya jihozlari, sogʻliqni saqlash boʻyicha ofertalar bilan taʼminlovchi — *sticker price*dan ham iborat va jami toʻlov — $75,285.

Shu bilan birga, Parsons barcha yoshdagi talabalar va bolalar uchun turli xil dasturlarni taklif qilishi bilan ajraladi:

1. Nyu-York va Parijda yozgi intensiv oʻqish (kollejgacha va kollej darajasida);

2. Uzluksiz taʼlim (sertifikat dasturlari va kattalar uchun umumiy sanʼat va dizayn taʼlimi);

3. Parsons Pre-kollej akademiyasi (yoshlar uchun sertifikat dasturlari va umumiy sanʼat va dizayn taʼlimi, 4-12 sinflar).

Toʻrtinchi oliygoh, Fransiyadagi Istituto Marangoni Paris [6] Domeniko Dolce (Dolce & Gabbana), Franko Moschino (Moschino), Alessandra Facchinetti (Tod’s) kabi moda yetakchilariga taʼlim bergan, jahon miqyosidagi ilgʻor taʼlim muassasasidir.

2022-yilda Dizaynerlar va modelerlarni tayyorlovchi dunyo boʻylab eng ilgʻor taʼlim muassasalari orasida 20-oʻrinni egallagan. Marangoni instituti 1935-yilda Milanda tashkil etilgan. Bu dunyodagi eng nufuzli va eng qadimgi moda, dizayn va sanʼat universitetlaridan biri. Bugungi kunda Marangoni filiallarida toʻrt mingga yaqin kishi tahsil oladi. Institut kampuslari zamonaviy moda va dizayn poytaxtlarida joylashgan: Milan, Florensiya, London, Parij va boshqalar.

Instituto Marangoni oʻz talabalariga quyidagi asosiy 3 ta mutaxassisliklar boʻyicha taʼlim beradi: moda dizayni, moda uslubi, moda sanoati. Yetakchi moda uylari bilan hamkorlik tufayli universitet talabalarga ish topishda yordam beradi. Karyera qurishda Institut markaziy qoʻshimcha mutaxassislari rezyume yozish va suhbatdan oʻtish boʻyicha tavsiyalar beradi.

Bitiruvchilar moda dizayneri, mahsulot menejeri, studiya direktori va marketing menejeri kabi mutaxassisliklar boʻyicha koʻplab mashhur brendlarda ishlashlari mumkin. Marangoni institutining oʻz oldiga qoʻygan maqsad va vazifasi butun dunyo madaniyatlari, gʻoyalari va uslublarini birlashtirishdan iborat. Institut bitiruvchilari moda va interyer dizayni sohasidagi innovatsiyalarning mohiyatini belgilab beruvchi, “Italiyada ishlab chiqarilgan” jumlasiga yangicha maʼno beruvchi mutaxassislarning butun jamoasini tashkil etadi.

Italiya, Yaponiya, AQSh, Fransiya moda taʼlimi: asosiy farqlarini alohida taqqoslaydigan boʻlsak, *akademik yondashuv*ga koʻra, Yaponiya va AQShdagi moda taʼlimi amaliy va texnik koʻnikmalarga asoslanadi. Bu yerda oʻquv jarayoni real sanoat ehtiyojlariga moslashtirilgan boʻlib, talabalarga amaliyot oʻtash, sanoat mutaxassislari bilan ishlash imkoniyatlari keng taqdim etiladi. Italiya va Fransiya moda taʼlimi esa koʻproq nazariyaga, innovatsion va eksperimental dizaynga eʼtibor qaratadi. Bu yondashuv talabalarning estetik va badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

*Taʼlim dasturi va davomiyligi*ga koʻra, AQShda moda sohasida toʻrt yillik bakalavriat asosiy taʼlim shakli boʻlib, dizayn, merchandayzing, marketing, menejment kabi yoʻnalishlarda chuqur ixtisoslashuv koʻzda tutiladi. Italiya, Fransiya, Yaponiyada esa qisqaroq, koʻproq amaliyot tatbiq etishga asoslangan loyihalar asosida ishlash va diplom yoki sertifikat bilan yakunlanadigan mutaxassislik kurslari keng tarqalgan.

*Sanoat bilan integratsiya*ga koʻra, Italiya va Fransiya oliy taʼlimi nufuzli universitetlar atrofida – Parij, Milan va London kabi shaharlarda sanoat aloqalarini shakllantirgan, AQShda taʼlim muassasalari koʻpincha Nyu-York va Los-Anjeles kabi moda markazlarida joylashgani sababli, talabalar ishlab chiqarish, koʻrgazma va moda brendlari bilan bevosita hamkorlik qilish imkoniyatiga ega. Yaponiya dizayn yoʻnalishi talabalari esa asosan mashhur moda brendlari Uniqlo, Issey Miyake, Comme des Garçons bilan birgalikda loyihalar ustida ishlaydi. Real mijozlar uchun dizaynlar ishlab chiqiladi va baholanadi.

**Xulosa.** Dizaynning taʼlim tizimidagi yuqorida tahlil qilingan davlatlar tajribasi hamda ulardagi aktual oʻqitish metodlari rivoji hozirgi kunda oʻquv jarayonlari davomida talabalar tomonidan yaratilayotgan sanʼat va ishlab chiqarish jarayonlari mahsuli sifatidagi libos modellarida ifodalanuvchi obrazlilik, tizimlilik va innovatsion xususiyatlarga ega boʻlgan loyihalash madaniyati belgilarining yangi texnologiyalar bilan uygʻunlashgan nazariy asoslarini shakllantirish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish yoʻnalishlarining poydevorini tashkil etadi.

Italiya, Yaponiya, AQSh, Fransiya kabi rivojlangan xorij davlatlari taʼlim tizimi va oʻquv dasturlari tahlili bilan tanishar ekanmiz Oʻzbekiston moda va libos dizayni taʼlim tizimini

rivojlantirishda yuqoridagi davlatlar oliygohlari tajribasidan quyidagi jihatlarni olish va amaliyotda qoʻllab koʻrish taklifi maqsadga muvofiq:

1. Amaliy va sanoatga yoʻnaltirilgan yondashuv – Yaponiya va AQSh tajribasi asosida talabalarni moda sanoati vakillari bilan erta tanishtirish, amaliyot va interaktiv loyihalarni keng joriy etish;
2. Ijodiy va nazariy asosning uygʻunligi – Yevropa modelidan ilhomlanib, talabalarga ijodiy yondashuv, konseptual fikrlash va san’at asoslari boʻyicha chuqur bilim berishni ta’minlash;
3. Qisqa muddatli, ixtisoslashgan kurslar – Italiya va Fransiya ta’lim tizimida qoʻllaniluvchi qisqa muddatli, diplomli va xalqaro tan olingan sertifikat dasturlarini yoʻlga qoʻyish orqali mehnat bozoriga tez moslashuvchi kadrlar tayyorlash mumkin;
4. Hududiy moda markazlari bilan hamkorlik – Toshkent, Samarqand yoki Buxoro kabi shaharlarda moda-klasterlar tashkil etib, mahalliy dizaynerlar va ishlab chiqaruvchilar bilan integratsiyalashgan ta’lim muhitini yaratishga e’tiborni qaratish maqoladan koʻzlangan asosiy maqsaddir.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Arxer, L. Brüs. Systematic Method for Designers. – London, 1963–1964. – 150 b.
2. Arnold, J. E. Creative Engineering: Promoting Innovation by Thinking Differently. – Stanford, 1959. – 200 b.
3. Bunka Gakuen University. Master's Program in Clothing Science Studies // https://web.archive.org/web/20150517091859/http://www.bunka-fc.ac.jp/english/departments/clothing_science.html
4. Design-based learning // Wikipedia // https://en.wikipedia.org/wiki/Design-based_learning
5. Inclusive Design Education for AI and Accessibility // arXiv.org: https://arxiv.org/abs/2403.15402
6. Institut Marangoni. Institut Marangoni Paris // https://www.istitutomarangoni.com/en/schools/paris
7. Istituzioni autorizzate a rilasciare titoli di Alta Formazione Artistica, Musicale e Coreutica (art.11 DPR 8.7.2005, n.212) (in Italian) / Ministero dell'Istruzione, dell'Università e della Ricerca. – Mart 2015-yil holatiga koʻra.
8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida : Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2017-yil 20-aprel, PQ–2909-son / Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – Toshkent, 2017. – 6 b. // https://president.uz/oz/lists/view/420
9. Parsons School of Design. – Nyu-York, 1896. // https://www.newschool.edu/parsons/
10. Pedagogical Approaches for Sustainable Fashion Design Curriculum: A Systematic Literature Review // https://www.researchgate.net/publication/378440053
11. Telenko, C., Currano, R., Seepersad, C. Sustainable design education: A review of international progress and future needs // Sustainability. – 2022. – Vol. 14, Issue 15. / / https://www.mdpi.com/2071-1050/14/15/9485

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).